



**VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI G`AYRIIJTIMOIY XATTI-
HARAKATLARGA JALB ETISHNING OLDINI OLISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

*Istamov Adizbek Alijon o`g`li,
Jamoat xavfsizligi universtiteti
Maxsus fakultet 1-kurs talabasi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada O`zbekiston Respublikasida Voyaga yetmagan shaxslarni g`ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etishning oldini olish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Voyaga yetmaganlar o`rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishda oila, ta`lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamkorligi yoritilib hamda profilaktika islarini kuchaytirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish, maktab va oilalarda huquqiy savodxonlik va tarbiyaning ustunligini ta`minlash, qolaversa media savodxonligi ro`lini oshirish to`grisida takliflar beriladi.*

***Kalit so`zlar:** Voyaga yetmagan shaxs, javobgarlik, g`ayriijtimoiy xatti-harakatlar, jazo, jinoiy javobgarlik, huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, media savodxonligi.*

Kirish:

Bugungi kunda jamiyat va mamlakat ravnaqi yo`lida islohotlarning asosiy maqsadi yosh avlodning ta`lim tarbiyasiga, kelajakda farovon turmush va taraqqiy etgan mamlakatlarning quruvchilari bo`lgan yosh avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Shunday bo`lsada, voyaga yetmagan shaxslar o`rtasida jinoyat xolatlarining tus olishi va ko`payib ketishi, bu masalaga nafaqat jiddiy e`tibor qaratishni, balki uning sabablarini ham chuqur tahlil qilishni taqazo etadi. Bunday xolatlar ko`payib ketishiga yetarlicha sabablar keltirsak bo`ladi. Masalan, oilada tarbiyaning sustligi, bugungi kundagi yosh ota-onalarning farzandlariga befarqligi, shu bilan birga maktablarda huquqiy savodxonlik, odob-axloq me`yorlarini, huquqiy madaniyat tushunchalari haqida yosh avlod ongiga yetarlicha



singdirilmayotganligini keltirib o`tishimiz mumkin. G`ayriijtimoiy xatti-harakatlar deganda, yoshlarni turli xil huquqbuzrlik va jinoyatlar sodir etishga undash, spirtli ichimliklar iste`mol qilishga jalb etish, giyohvand moddalar va psixatrob moddalarni qabul qilishga ,bezorilik, o`g`rilik firibgarlik kabi huquqbuzarliklarga jalb etish, axloqqa va huquqqa zid xatti-harakatlarga olib kirish tushuniladi. Bu ishlar turli xil yo`llar orqali amalga oshiriladi, masalan, yoshlarni giyohvadlik va psixik kaslliklarni keltirib chiqaruvchi dorilar savdosiga o`rgatish va h.k.

Voyaga yetmaganlarni g`ayriijtimoiy jinoyatlarga jalb qilish sabablari. Voyaga yetmagan shaxslar deganda , bu 18 yoshga to`lmagan, ya`ni muomala layoqatiga ega bo`lmagan bolalar tushuniladi. Ular o`z yoshining xususiyatlari sababli o`zini himoya qilish uchun yetarli bilim- ko`nikma va tajribaga ega emasliklari tufayli turli xil oqimlarga, terroristik tashkilotlarga oson yo`llar orqali kirib qolishlari hech gap emas. Bunday omillar turli xil holatlar tufafli yuzaga keladi. Ulardan eng taniqlisi esa, hozirgi kundagi yosh oilalardagi muhit ya`ni tarbiyaning sustligidir. Yosh ota-onalar bolalariga tarbiya berish o`rniga, o`zlarining ishlari, holatlari to`g`risida ko`p o`ylashadi va natijada farzandlariga deyarli e`tibor qaratishmaydi ,

Zero, "Tarbiya biza uchun yo hayot-yo mamat, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"-A. Avloniy.

Yana bir omillardan biri esa ,ularga maktablarda huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, madaniyat kabi tushunchalarning chuqur ma`no- mazmunini o`rgatmaslikdir:

Huquqiy ong-insonni o`z ma`rifat va ma`naviyat darajasiga tayangan holda jamiyatda amal qilayotgan huquqiy talab va normalarning mazmunini tushunish va mohiyatini anglashdir.

Huquqiy madaniyat-fuqarolarning o`z haq huquqlarini huquqiy ongiga tayangan holda o`zgalar mafaatiga

zid kelmaydigan tarzda amalga oshirish tushuniladi.



Huquqiy savodxonlik –bu shaxsning jamiyatda amal qilayotgan qonunlar, oʻz huquqlari va majburiyatlari haqida yetarli darajaga ega boʻlishi hamda ulardan kundalik hayotda toʻgʻri foydalana olishidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish boʻyicha turli xil manbalar bor. Jumladan, “Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi” Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 127 –moddasida aynan ularni gʻayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlarning javobgarligi belgilangan:

Voyaga yetmagan shaxsni spirtli ichimliklar isteʼmol qilishga, giyovandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga taʼsir qiladigan vosita va moddalarni isteʼmol etishga jalb qilish, shunday harakatlar uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin sodir etilganboʻlsa, — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigachamiqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar isteʼmol etishga jalb qilish — uch yuz oltmish soatdan toʻrt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

1) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni gʻayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bogʻliq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

2) ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

3) oʻquv yurtlarida yoki oʻquvchilar, talabalar oʻquv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari oʻtkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi — besh yildan oʻn yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Shunday bo'lsada, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2025- yil oxirgi ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonda voyaga yetmaganlar o'rtasida 3266 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, Ularning 65%i asosan 5ta hududda (Toshkent shahri, Farg'ona viloyati, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatida) sodir etilgan. Eng yuqori ko'rsatkich esa, Toshkent shahrida sodir etilgan. Buning yana bir asosiy sabablaridan biri media savodxonligidir, hozirgi kunda deyarli barcha yosh bolalar juda kichikligidan boshlab ijtimoiy tarmoqlarda to'xtovsiz o'zlarining yoshlariga va mentalitetlariga to'g'ri kelmaydigan kontentlarni ko'rishadi va buning natijasida ular, turli xil g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga - diniy ekstramizm, turli xil tarmoqlar orqali narkotik moddalar kuriyerligi kabi jinoyat oqimlarga kirib bormoqdalar.

Fikrimcha, biz bu kabi jinoyatlarni oldini olishda, ya'ni media savodxonligi ma'salasida ba'zi davlatlarning, xususan, Germaniya, Polsha tajribalarini qo'llashimiz kerak. Germaniyada yoshlar ongini turli xil zararlardan himoya qilish maqsadida 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanishini taqiqlash masalalari yo'lga qo'yilmoqda. O'ylaymanki, Biz ham 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga bunday taqiqlarni qo'llashimiz kerak. Bundan tashqari, bu kabi masalalarni faqat javobgarlik yoki qonunni kuchaytirish orqali emas, balki ijtimoiy, oilaviy muhit va mahalla uzviyligida xal qilish kerak. Maslan, Har bitta mahallada bolalar uchun futbol maydonlari, suv havzalari va shunga o'xshash maydonchalar qurish, qolaversa kutubxonalar tashkil etish kerak, Va maktablarda

Huquq o'qituvchilari tomonidan darslar teng asosda ham amaliy ham nazariy olib borilishi kerak, hamda yosh avlod javobgarlik nima, qonun nimaligini bilishi va qonunlarni hurmat qilishi kerakligini bilishi zarur. Eng asosiy g'oyalardan biri Yoshlar agentligi qoshida "Yagona voyaga yetmaganlar elektron bazasi" va bir guruh shtat tashkil etib, ularni voyaga yetmaganlar bilan ishlashi uchun vazifalarini belgilash kerak, Masalan:

-Voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, huquqbuzarliklarining oldini olish

-Voyaga yetmaganlarning ijtimoiy tarmoq platformalarini tekshirish



-Yosh avlodning noqonuniy xatti-harakatlari va jinoyatlariga sabab qiluvchi holatlarni o`rganib chiqish va ularni bartaraf etish.

-Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo`lgan voyaga yetmaganlar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadiki, Voyaga yetmaganlarni g`ayriijtimoiy harakatga jalb qilishni oldini olish uchun faqat jazo choralarini qo`llash yetarli emas, balki “Shaxs-oila-mahalla-ta;lim muassasasi” prinsipi asosida tarbiya va huquqiy savodxonlik tizimini uyg`unligini yaratish shuningdek, ba’zi davlatlarning standartlaridan foydalanish t orqali bu kabi huquqbuzarliklarni oldini olishni samarali yolg`a qo`yish mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.

O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o`rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to`g`risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2010.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2022.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O`qituvchi, 2008.

Rustamboyev M. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). – Toshkent: Adolat, 2021.

Jo`rayev N. Huquqiy madaniyat asoslari. – Toshkent, 2019.

Internet manbalari:

www.lex.uz

www.gov.uz

www.stat.uz